



DEFEKTOLOG VA OILA HAMKORLIGIDA OLIB

Boriladigan Korreksion Ishlar

QDPI Defektalogiya Kafedrasi Katta O'qituvchsi D.Yo'ldasheva,
 305-Gurux Talabasi Xudayberdiyeva Barchinoy,

Hozirgi XXI-asr ulkan o'sishlar, yangiliklar, rivojlanish va axborot texnologiyalari asridir. Barchamizga sir emaski, mustaqil vatanimizda ham ko'plab o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Har sohada yangiliklar, qulayliklar yaratilmoqda. Suningdek hali yosh bo'lgan defektologiya sohamizda ham quvanarli yutuqlami qo'lga kiritmoqdamiz. Avval defektologiya qanday fan, bu soha vakillari qay tarzda ish olib borishadi, ulaming asosiy maqsadlari, vazifalari haqida qisqacha to'xtalib o'tsak. Defektologiya fani asosan XIX asming o'rtalariga kelib rivojiana boshladi. Ilk bor 1925-yilda Moskva shahrida Defektologiya Instituti tashkil etilib bunga psixolog-professor L.S.Vigotskiy boshchilik qildi. O'zbekistonda esa bu fan rivoji 1967-yjidan boshlab tezlashdi. Aynan shu yili Nizomiy nomidagi Toehkent davlat Pedagogika Institutining Pedagogika va psixologiya fakulteti qoshida oligofrenopedagogika bo'limi tashkil etildi. Defektologiya so'zi lotinchadan olmgan bo'lib "defekt" kamchilik, nuqson, yunoncha "logos" esa ta'limot, fan, o'rganish degan ma'nolami anglatadi. Bu soha bilan shug'ullanuvchi insonlar degektologlar hisoblanib ular asosan sog'lom bolalarga nisbatan orqada qolayotgan bolalarni tarbiyajash, o'qitish, ulaming kamchiliklarini korreksiyalash ya'ni, tuzatish yoki bilinmaydigan holga keltirish bilan shug'ullanishadi. Bundan tashqari bu sohaning jonkuyar vakillari ko'plab boshqa vazifalami ham bajarishadi. Bu sohada faoliyat olib boradigan insonlar liam pedagogika, ham psixologiya, ham tibbiy bilimlardan yaxshi habardor bo'lishlari talab etiladi. Sababi, qabullariga yordam so'rab kelgan bdam n'qitadilar, uning psixologik jarayonlari, kayfiyati, sog'ligim nazorat qilib ish olib boradilar. Defektologlaming asosiy ish faoliyati rivojlanishda orqada qolayolgan bola bilan ishslashdan iborat. Oila tayanchi hisoblangan farzand ota-onaning quvonchi, ovunchog'i, yorqin kelajagidir. Yangi oila qurgan yoshlarimizning bir-biriga bo'lgan ishonchi, sadoqati, mehrini orttiruvchi vosita bu farzanddir. Sog'lom oilada, albatta, sog'lom bola dunyoga keladi. Biz quyidagi so'zlamni kdtirib o'tishni ma'qil ko'rdik. Binobarin, buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy "Komil insonning voyaga yetishi uchun 3 ta shart lozim. Ular: irsiyat, muhit hamda tarbiya" degan so'zlamni aytganlar. Bu 3 omilning birida kamchilik kuzatilsa, komil insonni shakllantirish amrimahol. Bizning defektologlarimiz yangi oila qurish arafasida bo'lgani yoshlarimizga, bo'lajak ota-onalarimizga o'z maslahatlari, ko'rsatmalarini, ogohlantirishlarini alohida ta'kidlab o'tishlari lozim. Oila rishtalarini bog'lashdan awal irsiyat birinchi o'rinda turadi. Zero, yigit-qizning oila a'zolarida ruhiy kasalliklar kuzatilmaganligi, ulaming ajdodlarida salbiy ko'rinishlar bo'lgan- bo'lamaganligiga qarab nikoh rishtalarini bog'laydilar. Defektolog ota-ona va bola o'rtasidagi ko'priq hamdir. Bolaga bexato tashxis qo'yish, to'g'ri muoalaja qilish, bu oilaning, ayniqsa, bolaning kelajagiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Kasalni davolashdan awal uning oldini olgan afzal, lekin uddalay olinmasa, hech bo'lamagananda uning yanada ildiz otishiga, tuzalmaydigan holga kelib qolishiga yo'l bermaslik lozim. Qo'yilgan tashxisiga asoslangan nuqsonni qanchalik erta vaqtan davolash ishlarini olib borilsa, uning ijobiy tarafga siljishiga shuncha erishish mumkin. Bunda endi ham defektolog, ham ota- ona, ham boladan katta sabr- matonat talab etiladi. Ota-onaga to'g'ri, tushunarli ma'lumot berish bilan bir qatorda ulaming ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish kerak bo'ladi, albatta. Defektolog, awalo, o'zmi ishontirishi va bunga bolaning yaqinlarini ham ishontira olishi lozim. Umid ilinji bilan oldingizga kelgan insonlami noumid qaytarish ularga nojo'ya so'zlamni aytishning o'zi insoniylikka qarshi qo'yilgan qadamdir. Ota-onada bolasining sog'ayishiga ishonch tug'dirdingiz, endi eng muhim vazifa bola bilan ishslash, uni korreksiya qilish bosqichini boshlash kerak bo'ladi. Ko'plab ota-

onalarimiz farzandlarida kuzatilayotgan rivojlanishda orqada qolayotganliklarini, nuqsonlarini iloji boricha ommaga ko'rsatishdan tortinishadi, buni ayb deb bilishadi. Ulaming ijtimoiy kelib chiqishlari, mansabi va boshqa sabablar defektologning qabuliga kelishga, bolasini ko'cha-ko'yda insonlar orasida olib yurishlariga to'siq bo'ladi, lekin zamonamizning insonlari orasidagi hamyurtlarimizning defektologik savodxonligining o'sib borishi awalgi yillarga qaraganada ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Bola bilan ishlashda muloyimlik, shirinsuhanlik, izlanuvchanlik va muhimi bolajonlik katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, bolani sevmay, uni yoqtirmay turib undagi nuqsonlami bartaraf etish qiyin holatdir. Defektolog bola bilan ishlashda uning oila a'zolarini oilaviy muhitini nazardan chetda qoldirmasligi lozim. Shu o'rinda bizning yurtimizdagi izchil o'zgarishlami aytib o'tishni lozim deb topdik. Yurtimizdagi viloyat va tumanlarda o'z ishlarini olib borayotgan realibidatsiya markazlari, maxsus muassasalar, sog'ligimizni mustahkamlashda xizmat ko'rsatayotgan sanatoriylar va sog'lomlashtirish maskanlari ayni vaqtda o'zining beminnat, samarali faoliyatlarini olib bormoqdalar. Bu, albatta, quvonarli hoi.

Foydanalingan adabiyotlar

1. Karimov I.A." O`zbekiston kelajagi buyuk davlat". Toshkent. O`zbekiston. 1992 y.
2. Karimov I.A. "Barkamol avlod orzusi". Toshkent. O`zbekiston. 1995 y.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent. 2008 y.
4. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyayev "Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 1-avgustdagি farmoishi.
5. A.I.Soatov, K.X.Mametov, P.M.Po'latova "Oligofrenopedagogika asoslari" Toshkent, "O'qituvchi"1994 yil.
6. AksyonovaA.K. Metodika obucheniya russkomu vspomogatelnoy shkole.- M.,Prosveshcheniye,2004
7. Boshlang`ich maklabning davlat ta`lim standartlari. RTM, T.,2006
8. Pulatova F.M. Oligalienopedagogika.T, 2006.
9. Rahmanova V,S.Mahsus pedagogika.T.2005
10. Ayupova M. «Korreksion ishlar metodikasi. (ma'ruzalar matni)». T 2005 y.
11. Mamedov K., Shoumarov G. Aqli zaif bolalar psixologiyasi. Toshkent, 1994, 122-125-betlar.